

EFTALIYLAR DAVLATI TARIXI

Islomqulov Ozodbek Rustam o'g'li

Jizzax Pedagogika Universitetining 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada Eftaliylar davlati tarixining shakllanishi, siyosiy va ijtimoiy hayotidagi o'ziga xos jihatlar muallif nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda Eftaliylar davlatining kelib chiqishi, hududiy chegaralari, boshqaruv tizimi, iqtisodiy asoslari hamda madaniy taraqqiyot bosqichlari yoritiladi. Shuningdek, Sosoniylar imperiyasi bilan bo'lgan siyosiy munosabatlar va harbiy to'qnashuvlar tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Eftaliylar davlati davrida Markaziy Osiyoda yuz bergan siyosiy jarayonlar, ularning mintaqa taraqqiyotiga ta'siri, diniy va madaniy hayotdagi o'zgarishlar tahlil markazida bo'ladi. Maqola Eftaliylar davlati tarixini o'quvchilar uchun tushunarli, ilmiy va tahliliy asosda yoritishga qaratilgan.

Kalit so'zlar; Eftaliylar davlati; qadimgi Turkiston; Eron va Hindiston bilan munosabatlar; Sosoniylar imperiyasi bilan munosabati; davlat boshqaruvi; iqtisodiy hayot; harbiy yurishlar; madaniyat; diniy e'tiqodlar; Markaziy Osiyoda tutgan o'rni tarixi.

KIRISH

Markaziy Osiyo hududi qadimdan ko'plab yirik davlatlar va sivilizatsiyalarning shakllanish markazi bo'lib kelgan. Shulardan biri — V–VI asrlarda mavjud bo'lgan Eftaliylar davlati bo'lib, u o'z davrida siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan kuchli imperiyalardan biri sifatida tarixda muhim o'rin egallaydi. Eftaliylar nafaqat O'rta Osiyo, balki Eron, Hindiston va Sharqiy Turkiston bilan ham faol siyosiy va savdo aloqalar o'rnatganlar. Ularning davlat boshqaruvi, harbiy siyosati va iqtisodiy hayoti o'sha davrning taraqqiy darajasini yaqqol aks ettiradi. Mazkur maqolada Eftaliylar davlatining kelib chiqishi, hududiy chegaralari, siyosiy tizimi, xalqaro munosabatlari hamda madaniy merosi tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Eftaliylar davlati Markaziy Osiyoda V–VI asrlarda shakllangan eng qudratli siyosiy tuzilmalardan biri hisoblanadi. Ular ba'zan 'Oq xunlar' deb ham atalgan bo'lib, O'rta Osiyo, Eron, Hindiston va Sharqiy Turkiston hududlariga ta'sir ko'rsatgan. Eftaliylar davrida hududiy kengayish, iqtisodiy yuksalish va madaniy almashinuv kuchli bo'lgan. Mazkur maqolada Eftaliylar davlatining kelib chiqishi, siyosiy hayoti, ijtimoiy tuzumi, madaniyati hamda qulash sabablari tahlil qilinadi.

Eftaliylarning kelib chiqishi haqida tarixchilar o'rtasida turli fikrlar mavjud. Ba'zi tadqiqotchilar ularni turkiy xalqlarga, boshqalari esa sharqiy eroniy qabilalarga mansub deb hisoblaydi. Ularning ilk yurti Tohariston va Balx atrofida joylashgan

bo‘lib, keyinchalik ular O‘rta Osiyoning katta qismini o‘z nazoratiga olgan. Eftaliylar o‘z nomini ehtimoliy rahbari — Eftalon yoki Hephthal nomidan olgan. V asrning o‘rtalariga kelib, Eftaliylar kuchli siyosiy kuch sifatida maydonga chiqishdi. Ular Kushonlar va Kidaritlar davlatlarining qulashidan so‘ng bo‘shagan hududlarni egallab, o‘z imperiyalarini barpo etdilar. Ularning poytaxti dastlab Balx bo‘lgan, keyinchalik Poykand, Buxoro, va Gurganj kabi shaharlar muhim markazga aylangan. Eftaliylar Sosoniylar imperiyasi bilan bir necha bor urush olib borgan, V-asr o‘rtalarida Sosoniylar podshosi Peroz (459-484) Eftaliylar ustidan g‘alaba qozonmoqchi bo‘lib yurish boshlaydi. Biroq Eftaliylar, Balx va Tohariston hududlarida Sosoniy qo‘shinini mag‘lub etadilar. Pero‘z I 474-yilda birinchi jangda mag‘lub bo‘ladi, keyin sulh tuzadi. Ammo u sulhni buzib, yana urush boshlaydi va 484-yilda ikkinchi jangda vafot etadi. Pero‘z I va uning qo‘shini to‘liq tor-mor bo‘lgan, Eftaliylar Eron hududlariga bostirib kirgan va Sosoniylarni og‘ir o‘lpon to‘lashga majbur qilganlar ayrim davrlarda Eronning katta qismini o‘zlariga bo‘ysundirganlar. Eftaliylar davlatida monarxiya tuzumi hukm surgan. Podsho oliy hokimiyat sohibi bo‘lgan, biroq u mahalliy boshliqlar yordamida yurtni boshqargan. Davlat markazlashgan tizimga ega bo‘lmasada, harbiy intizom va soliqlar tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Eftaliylar turli xalqlarni o‘z tasarrufiga olganlari uchun ko‘p millatli imperiya shaklida mavjud bo‘lgan. Boshlang‘ich davrda Eftaliylar asosan ko‘chmanchi qabilalar shaklida hayot kechirgan: yaylovdan yaylovga yurish, otli kavaleriya, yozgi va qishki pastliklar orasida harakatlanish imkoniyatlari mavjud bo‘lgan. Ammo hukmronlik davrida, ayniqsa To‘hariston va Bactriya hududlarida, Eftaliylar “shahar joylashuvi” shaklini ham qisman qabul qilgan: san‘at va arxitektura jihatdan devor bilan himoyalangan manzillar, qal‘alar, hamda “Bolalik tepa” kabi joylarda ustin devor rasmlari freskalar topilgan. Bu esa turmush tarzi jihatdan ikki qatlamli tasvirni beradi: elit qabilalar va hukmdorlar uchun shaharli qarorgoh hamda oddiy aholiga ko‘chmanchi va yarim-ko‘chmanchi turmush tarzi. Qishloq xo‘jaligi, savdo va zanat (metall ishlov, san‘at) jihatlarida Eftaliylar hududi O‘rta Osiyoda savdo markazlari funksiyasini olgan – bu esa mahalliy aholi uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratgan. Masalan, tangalar, metall idishlar va san‘at asarlari topilgan. Eftaliylarning hukmronligi davrida To‘hariston va Bactriya hududlarida san‘at, kiyim-kechak, me‘morchilikda yangi shakllar paydo bo‘lgan. Masalan, Bolalik tepa joyida topilgan freskada hakam kiyimlari, kaftanlar, turli qavatli kiyimlar orqali Eftaliylar va mahalliy san‘atchilarning birikkanligi ko‘rinadi. Ularning hukmronligi mahalliy chorva, paxta, savdo yo‘llari, hunarmandchilik tarmoqlari (masalan, metall ishlov, bezakli idishlar) uchun qulay muhit yaratgan, bu esa O‘rta Osiyo aholisining turmush tarzini obodonlashtirishga xizmat qilgan. Shuningdek, etnik aralashuv jarayoni ham mavjud bo‘lgan: mahalliy iraniy til-madaniyatga mansub aholi ham Eftaliylar bilan siyosiy, ijtimoiy jihatdan integratsiyalashgan. Bu esa lokal madaniyatga Eftaliylar ta’siri bilan yangicha unsurlar

kirib kelishiga olib kelgan. Eftaliylar o'zlari uchun aniq bir yozma ma'lumot ko'p qoldirmagan, lekin Xitoy sayohatchilari va arxeologik manbalar orqali ularning diniy e'tiqodlari haqida ba'zi ma'lumotlar mavjud. Masalan, Xitoy sayohatchisi Song Yun 540 yillarda Eftaliylar hududiga kirib, ularning Buddizmga e'tiqod qilmasliklari, ko'plab “nohindu, noo-Buddist” xudolarni ibodat qilganliklari haqida ma'lumot bergan. Manbalarda ular “tian-shen” (osmon xudosi) va “huo-shen” (yonuxudosi) kabi ibodat qilingan xudolar haqida so'z yuritiladi. Biroq, hukmronligi ostidagi hududlarda Buddizm, Zoroastrizm, Manixizm, xristianlik kabi dinlar ham mavjud bo'lgan – ya'ni mahalliy aholi orasida turli e'tiqod shakllari saqlanib qolgan. Masalan, To'hariston hududida Buddhist monastirlar faol bo'lgan. Bu jihatdan Eftaliylar hukmronligi dinlararo xotirjamlik va madaniy pluralizmga bo'lgan ta'sirga ega bo'lgan – ya'ni, mahalliy aholi o'z diniy va madaniy an'analari saqlagan holda, Eftaliy siyosiy ta'siri ostida yashagan. Eftaliylar davrida iqtisodiyot asosan dehqonchilik, chorvachilik va xalqaro savdoga asoslangan. Ular ipak yo'li bo'ylab joylashgan strategik hududlarni nazorat qilganlari sababli Xitoy, Hindiston va Vizantiya bilan savdo aloqalari rivojlangan. Tangalar zarb qilish an'analari keng yoyilgan bo'lib, ularning tanga tizimi Sosoniylar tangalariga o'xshash edi. Davlatning asosiy iqtisodiy tarmog'i dehqonchilik edi. Amudaryo, Zarafshon, Surxondaryo va Qashqadaryo vodiysidagi unumdor yerlarda bug'doy, arpa, paxta, sabzavot va mevalar yetishtirilgan. Sug'orish tizimlari yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib ariq, kanal va hovuzlar qurilgan. Eftaliylar suv xo'jaligiga katta e'tibor bergan, bu esa hosildorlikni oshirgan. Tog' va dasht hududlarida ot, qo'y, tuya va sigir boqilgan. Eftaliylarning harbiy kuchi ham otliq lashkarlarga asoslangan, shuning uchun ot yetishtirish muhim tarmoq bo'lgan. Chorvachilik mahsulotlari —go'sht, jun, sut va charm savdoda muhim o'rin tutgan. Shaharlar va qishloqlarda temirchilik, kulolchilik, to'qimachilik, zargarlik rivojlangan. Mahalliy ustalar qurol, zirx, idish-tovoq, tanga va bezak buyumlari yasaganlar. Ayniqsa, balx, poykent va tohariston shaharlarida ustaxonalar faol ishlagan. Eftaliylar davlati Buyuk ipak yo'lida joylashganligi tufayli xalqaro savdoning muhim markaziga aylangan. Hindiston, Xitoy, Eron va Vizantiya bilan savdo aloqalari bo'lgan. Savdo orqali ipak, ziravorlar, oltin, qurol, qimmatbaho toshlar, otlar va charm buyumlari almashilgan. Davlat bojxona va savdo soliqlaridan daromad olgan. Eftaliylar davrida turli madaniyatlarning uyg'unlashuvi kuzatilgan. Buddaviylik, zardushtiylik va mahalliy e'tiqodlar yonma-yon mavjud bo'lgan. Arxeologik topilmalarda budda ibodatxonalari, san'at asarlari va tanga naqshlarida Eftaliylar o'ziga xos badiiy uslubi namoyon bo'ladi. Ular yozuv va tillar jihatidan ham turli tizimlardan foydalangan. Ularning tili va madaniyatida Eron unsurlari kuchli bo'lgan, degan qarash ham mavjud. Ijtimoiy va siyosiy jihatdan, Eftaliylarlar bir etnik birlikdan ko'ra turli qavmlar, tillar va madaniyatlarni o'z ichiga olgan konfederatsiya bo'lgan degan fikr mavjud. Podsho atrofida maslahat beruvchi zodogonlar kengashi (oqsoqollar,

lashkarboshilar, ruhoniylar) bo‘lgan. Ular davlat masalalarini muhokama qilgan, lekin yakuniy qarorni podsho qabul qilgan. Davlat tarkibida ko‘plab viloyatlar va shaharlar bo‘lgan. Ularni mahalliy hokimlar boshqargan. Ular soliq to‘lagan va podsho buyrug‘i bilan qo‘shin yuborgan. Ba’zi hududlar (masalan, So‘g‘d, Tohariston) yarim mustaqil bo‘lib, o‘z ichki boshqaruvini saqlab qolgan. Eftaliylar kuchli otliq qo‘shinga ega edilar. Harbiylar jamiyatda katta mavqega ega bo‘lgan. Urush va himoya masalalarini harbiy lashkarboshi boshqargan. Harbiy yurishlar orqali Eftaliylar Hindiston, Eron va Markaziy Osiyoning katta qismini bosib olganlar. Davlat yer solig‘i, savdo boji, urush o‘lponi kabi soliqlarni yig‘gan. Eftaliylar o‘z pul tizimini (tanga zarbi) yaratganlar. Poytaxtlar balx, poykent va bomiyon shaharlarida iqtisodiy markazlar joylashgan. Qonunlar asosan odat huquqiga ga ya’ni xalq urf-odatlariga asoslangan. Nizolarni oqsoqollar kengashi yoki mahalliy sudlar hal qilgan. Diniy masalalarda esa ruhoniylar fikri muhim bo‘lgan. Eftaliylar diniy bag‘rikeng siyosat yuritganlar. Aholi orasida, buddaviylik va zardushtilik va mahalliy etiqotlar mavjud bo‘lgan. Podsho barcha dinlarga nisbatan hurmat bilan qaragan. VI- asrning ikkinchi yarmiga kelib, Eftaliylar davlati ichki ziddiyatlar va tashqi bosimlar tufayli zaiflashdi. Sosoniylar imperiyasi bilan birga Turkklar ham ularga qarshi harakat qildi. Ichki uyushmasizlik va konfederatsion tuzilish: Eftaliylar bir etnik guruh emas, balki bir nechta qabilalar va tumanlardan iborat edi, bu esa ularni mustahkam markazlashgan davlatga aylanishiga to‘sqinlik qilgan. Turkklar va Sosoniylar ittifoqi 557-yilda Eftaliylar ustidan hal qiluvchi zarba berdi. Bu jangdan so‘ng Eftaliylar imperiyasi parchalanib ketdi va ularning siyosiy hukmronligi tugadi. Biroq Eftaliylar madaniyati va ularning davlat boshqaruvidagi tajribalari keyingi asrlardagi turkiy va eroniy xalqlarga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

XULOSA VA MUNOZARA

Eftaliylar davlati — Markaziy Osiyo tarixida chuqur iz qoldirgan eng qudratli imperiyalardan biridir. V asrda shakllanib, VI asr o‘rtalariga qadar yashagan bu davlat Sharq va G‘arb o‘rtasida siyosiy, madaniy hamda iqtisodiy ko‘prik vazifasini bajargan. Eftaliylar o‘z davrida kuchli harbiy salohiyat, rivojlangan boshqaruv tizimi va adolatli soliqlar siyosati bilan ajralib turganlar. Ular nafaqat Eron va Hindiston bilan tenglashgan, balki Markaziy Osiyo xalqlarining siyosiy birlikka intilishida muhim rol o‘ynaganlar. Bu davrda shaharlar, hunarmandchilik, savdo yo‘llari va yozuv madaniyati yuksalgan. Eftaliylar diniy bag‘rikenglik siyosatini yuritib, buddaviylik, zardushtiylik va mahalliy e’tiqodlarning rivojiga imkon berganlar. Eftaliylar davlati qulagan bo‘lsa-da, uning siyosiy tajribasi, madaniy merosi va davlat boshqaruvi keyinchalik turkiy hamda forsiy davlatlarning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ahmad Hasan Dani. History of Civilizations of Central Asia. Vol. III. UNESCO, 1996.
2. Khodadad Rezakhani. ReOrienting the Sasanians: East Iran in Late Antiquity. Cambridge University Press, 2017.
3. Aydogdy Kurbanov. The Archaeology and History of the Hephthalites. Verlag Dr. Müller, 2013.
4. Aydogdy Kurbanov. The Hephthalites: Archaeological and Historical Analysis. 2010.
5. Hamid Lutfy. An Epic of Resilience, Civilization, and Culture: From Prehistory to Hephthalites. 2025.